

JONDOR TUMANI TARIXI VA ME'MORIY YODGORLIKLARI.

Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası

Tarix fani o'qituvchisi.

Jo'rayeva Mehrinoz Ikrom qizi

Tarix ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10976661>

Annotatsiya. Ushbu maqola Jondor tumani etnologiyasi, uning joylashgan o'rni. Jondor atamasi kelib chiqish va ma'nolari bundan tashqari, Jondor tumanida joylashgan yodgorliklar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jondor, Qizbibi ziyoratgohi, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Varaxsha yodgorligi, Mahmud Torobiy daxmasi, Shayxi Islom qalasi, Mir Arab.

HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT.

Abstract. This article is ethnology of Jondor district, its location. In addition to the origin and meanings of the term Jondor, information about the monuments located in Jondor district is covered.

Key words: Jondor, Qizbibi shrine, Karakhanids, Khorezmshahs, Varakhsha monument, Mahmud Torabi hut, Sheikh Islam fortress, Mir Arab.

ПАМЯТНИКИ ИСТОРИИ И АРХИТЕКТУРЫ ЖОНДОРСКОГО РАЙОНА.

Аннотация. В статье рассматривается этнология Джондорского района, его местонахождение. Помимо происхождения и значения термина Джондор, освещается информация о памятниках, расположенных в районе Джондор.

Ключевые слова: Джондор, храм Кизбиби, Караханиды, хорезмшахи, памятник Варахше, хижина Махмуда Тораби, крепость Шейха Ислама, Мир Араб.

Jondor tumanini kelib hiqish tarixidan oldin, Jondor so'zi haqida tarif bermoqchiman, Jondor so'zi joni sog', bek bo'lsin yoki, jondor bo'ri, Bo'riboy degan ma'nolarni bildiradi. Jondor ismi asosan o'g'il bolalarga qo'yiladi va bu ism fors-tojikcha bo'lib: Joni sog', Bo'riboy quyidagi ma'nolarga ega.

Jondor so'zi qadimda qo'lanib kelingan bo'lib oddiy so'z emas balki yuqori martabali lavozim vazifasini bajargan. Masalan silohdop-saroy lavozimlarida biri, Movarounnahrda xususan Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida yasavulboshi. Saljuqiylar davrida Jondorlar qo'riqchilik va jallodlik vazifalarini ado etgan jangchilar bo'lib, ularning boshlig'i amiri Jondor unvoniga ega bo'lgan. Ular Somoniylar davrida sohibi haros yoki, amiri haros deb atalgan. Xorazmshoh Takash hujjatlarida Jondor shuhratining dongdor kishilaridan so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi davrida Shom voliylaridan biri Jondor unvoniga ega bo'lgan.

Jondor bu O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatiga qarashli tuman hisoblanadi. 1935-yil 17-yanvarda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Buxoro va Romitan tumanlari tarkibida bo'lgan. Jondor tumani janubi-g'arbdan Olot, Qorako'l tumanlari, sharq va shimoliy sharqdan Buxoro, Romitan, Peshku tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 5,17 ming kvt.km. Jondor tumanida 1 ta shaharcha Jondor, 13 ta qishloq fuqarolar yig'ini bor bular: Aleli, Dalmun, Lolo,

Mirzayon, Navrabet, Oqshix, Romish, Po'loti, Samonchuq, Sepatta, Xumdonak, Xumin, Qorali. Jondor tumanida to'rtta yirik tarixiy obida mavjud: Varaxsha yodgorligi VII asr, Mahmud Torobiy daxmasi XIII asr, Shahri Islom qalasi, Qizbibi me'moriy majmuasi XVI asr. 1935-yildan boshlab "Jondor ovozi" gazetasi chop etilgan.

Shuningdek Jondor nomli Buxoro viloyatida Jondor tumaniga qarashli shaharcha mavjud. 1981-yildan mazkur shaharcha Jondor tumanining markazi qadimiy Zarafshon o'zanining o'ng sohilida joylashgan. Jondordan xalqaro ahamiyatga molik BuxoroTurkmanboshi(Chorsu) avtomagistrali o'tgan. Jondor –Buxor, Jondor-Qorako'l yo'nalishlarida avtobuslar qatnaydi. 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari xotirasiga yangi me'moriy majmua barpo etilgan. 1991-yil 28-sentabrdagi tuman kengashining 8-sonli qaroriga asosan Mazkur tuman yana Jondor nomi bilan yuritila boshlangan. Buxoro viloyati Jondor tuman davlat arxivi saqlovidagi fond 70,4-raqamli yig'ma majlisda xalq deputatlari Jondor qo'rg'on kengashi ijroiya qo'mitasi tomonidan 1992-yil 27-yanvardagi "Jondor qo'rg'onini nohiyaga qarashli sharga aylantirish haqida" gi 1/3-sonli qarori saqlanmoqda.Arxiv hujjatida Jondor nomini saqlab qolgan holda mazkur qo'rg'onni rayonaga qarashli shaharga aylantirish masalasiga oid bir qancha ma'lumotlar keltirilgan.

Zero, tumanning Jondor deb nomlanishiga asos bor. Buxoro bilan Varaxsha shaharlari o'rtasida oqib o'tuvchi Zarafshon daryosining ikki qirg'og'i juda so'lim bog' - to'lar,daraxtzor va butazorlardan iborat bo'lib, har xil parrandalar, qushlari, kiyik va boshqa. turli tuman hayvonlar yashaydigan hudud hisoblangan. Ana shunday jonzotlar ko'p yashagan joyda barpo qilingani uchun ham Jondor yani jonzotlari ko'p yashaydigan makon deb yuritilgan ekan.

Jondorda joylashgan arxeologik yodgorliklar ichida Qizbibi ziyoratgohi e'tiborimni o'ziga tortdi. Buni nomini atalishiga nima sababchi bo'lganini aniqladim. Qizbibi ziyoratgohi O'goyi buzruk deb ham atalar ekan. Qizbibi tarixiy yodgorlik majmuasi bo'lib 14-18 asrlarda barpo etilgan ziyoratgoh O'zbekistonmoddiy va madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan.

Rivoyatlarga ko'ra, Bibi Sharifa bir necha yil farzand ko'rmagan bo'lib zodagonlar oilasidan bo'lgan. Bir necha yillardan so'ng u qiz bola farzand ko'radi va uning ismini Qizbibi deb qo'yishadi. Qizbibining otasi arab bo'lib, sayyidlar avlodidan O'goyi Buzkur bo'lgan.U hokim bo'lgan Qizbibini Bibi Maxsumaipok deb ham atashgan. U hayoti davomida biror marta turmushga chiqmagan va o'zi sabzavot va mevalar yetishtirgan.U o'qimishli avliyolardan biri bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Amir Sayyid Abdullo yoki Mir Arab 16 asrda Qizbibiga sovchi yuborgan.U sovchilarga rad javobini bergan va ikkinchi marta ham Mir Arab sovchi yuboradi u sovchilarga shunday javob bergan:" Orqangizga qaytinglar,Mir Arab bu olamni tark etdi" Sovchilar qaytishganda haqiqatdan ham Mir Arab vafot etganligiga ishonch hosil qilishgan. Qizbibi tarixiy yodgorlik majmuasi bo'lib, madrasa, masjid, chilaxona, dahma, quduq va darvozaxonadan iborat. Majmua XIV - XVIII asrlarda barpo etilgan. Mahalliy aholi farzand istab, Qizbibi qadamjosidagi chilaxonani ziyorat qilishadi va quduqdan suv ichadilar. Mustaqillik yillarida Qizbibi ziyoratgohida obodonchilik ishlari olib borilgan. Tarixchilarning fikricha Tumani Samonchuq qishlog'ida Bibi Maxsumaipok nomli tepalik bor u qabriston hisoblanadi.

Ziyoratgoh O'rta Osiyo me'morchiligi uslubida bunyod etilgan. Qizbibi ziyoratgohi pishiq g'isht, yog'och, tosh va ganchdan qurilgan.

Xulosa, o'rnida shuni aytish mumkinki ko'rgan, bilgan ma'lumotlarimga tayanib har bir tumanning qishloqning o'zini paydo bo'lish tarixi, dini, madaniyati, urf-odatlarini, kiyinish tartiblari, arxeologik yodgorliklari, muqaddas joylari bor. Jumladan Jondor tumanini ham arxeologik yodgorliklari juda ko'p lekin men faqatgina Qizbibi yodgorligini tanladim. Jondor tumaniga ham sovet ittifoqidan keyin hayvonlarni, o'simliklarni ko'p bo'lgani uchun ham Jondor nomi berilgan ekan.

REFERENCES

1. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). KHOJA ABDULKHOLIQ GIJDUVANI. *Modern Science and Research*, 3(2), 87–93. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30711>
2. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS OF ETHNOLOGIES OF BUKHARA. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004–1011. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29523>
3. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 3(2), 500–507. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29386>
4. Toshpo'latova, S. (2024). RELIGIOUS ANTHROPOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(1), 504–510. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28281>
5. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). M. S. ANDREYEV'S WAY OF LIFE. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 655–659. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2280>
6. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 432–437. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2792>
7. Toshpo'latova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF NATIONAL COSTUMES AND RITUALS OF TAJIKS IN THE WORKS OF M. S. ANDREYEV. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42–47. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-08>
8. Toshpo'latova, S. (2023). M. S. ANDREYEV-SCIENTIFIC CAREER. *Modern Science and Research*, 2(12), 801–807. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27191>
9. Sh.Sh.Toshpo'latova, & I.N.Naimov. (2023). M.S. ANDREYEV – O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214–1222. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/698>
10. Toshpo'latova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETYMOLOGY OF TAJIK MARRIAGE CEREMONY. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17–23. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-05>

11. Toshpo'latova, S. S. (2023). TOJIKLAR MILLIY KIYIM-KECHAKLARI VA "BESHMORAK" MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(28), 395–401. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5071>
12. Naimov, I. & Toshpo'latova, S. . (2023). MARRIAGE CEREMONY OF TAJIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH ANDREYEV "TADJIKI DOLINI KHUF". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12–16. Retrieved from <https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/205>
13. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF M.S. ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291–299. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25092>
14. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF M. S. ANDREYEV - "ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404–409. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24229>
15. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84–89. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23903>